

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

MUDDATIDAN OLDIN TUG'ILGAN CHAQALOQLARDA HAMSHIRALIK PARVARISHINING XUSUSIYATLARI

Murodova Gulira'no Boyqo'zi qizi

Buvayda Abu Ali ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi mutaxassislik fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloq, uning belgilari, chalalik darajalari, muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish, ular tanasida termoregulatsiya jarayonini idora qilish xususiyatlari, chala tug'ilgan chaqaloqlarni ovqatlantirish ko'nikmalari, chala tug'ilgan chaqaloqlarda fiziologik holatlarning kechishi, hamda chala tug'ilgan chaqaloqning keyingi rivojlanishi to'g'risidagi bilimlar yoritilgan. Shuningdek, chala tug'ilishga sabab bo'luvchi omillar va bu holatning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Chala tug'ilgan chaqaloq, chalalik darajalari, isituvchi yo'rgaklash stoli, kuvez, fiziologik vazn kamayishi, fiziologik sariqlik, buyrak-urat infarkti, fiziologik eritema, burun zondi orqali ovqatlantirish.

KIRISH

«Chaqaloq (homila)nig tirik va oy-kuni (yetilib) tug'ilganligini aniqlash mezonlari to'g'risidagi» ko'rsatmaga binoan 38—40 haftalik, 9 kalendar va 10 akusherlik oylariga teng bo'lgan homiladorlik muddatini o'tamasdan turib, vazni 2500 grammdan kam va bo'y uzunligi 45 sm ga yetmay tug'ilgan chaqaloqlar chala tug'ilgan deb aytiladi. Chalalikning pastki chegarasi sifatida vaznning 1000 gramm va bo'yning 35 sm bo'lishi belgilangan. Belgilangan chegaradan past o'lchovlarda tug'ilgan chaqaloq yetilmagan homila deb yuritiladi va ular bordi-yu yashab qolib uylariga chiqariladigan bo'lsa, ularga chala tug'ilganlik haqida ma'lumotnoma beriladi.

Vazn va bolaning bo'yi haqidagi ma'lumotlardan tashqari, chala tug'ilgan bolalarning quyidagi obyektiv ya'ni, tashqi belgilarini ham hisobga olish kerak.

Chalalikning darajalari quyidagilarga qarab aniqlanadi:

Tug'ilgandagi vazniga qarab:

I daraja — 2500 dan 2001 grammgacha,

II daraja — 2000 dan 1501 grammgacha,



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

III daraja — 1500 dan 1001 grammgacha,

IV daraja — 1000 grammdan kam.

Homiladorlikning muddatiga qarab:

I daraja — 37—35 haftalik,

II daraja — 34—32 haftalik,

III daraja — 31—29 haftalik,

IV daraja — 28 haftalikdan ham kam

Chala tug‘ilgan chaqaloqlarning teriosti yog‘ qatlami sust rivoj langan, teri turgori va elastikligi pastligi sababli serajin, badani, qo‘l-oyoqlari va asosan, yuzlarini bir talay tuk qoplagan bo‘ladi. Chala tug‘ilgan bolalarda kalla suyaklari ko‘pincha bir-biriga kirgan, kichik liqildoq aksariyat bolalarda ochiq bo‘ladi. Quloq tog‘aylari yumshoq, boshga yopishib turadigan, kalla o‘lchamlari ko‘krak qafasinikidan anchagina katta bo‘ladi.

Chaqaloqning tirnoqlari barmoqlari uchigacha o‘sib yetmagan, qiz bolalarda katta uyatli lablar jinsiy yoriq va klitorni berkitmagan, o‘g‘il bolalarda esa moyaklar yorg‘oqqa tushib ulgurmaganligi aniqlanadi. Kindik halqasi xanjarsimon o‘simta bilan qov birlashmasinig o‘rtasidan o‘tgan chiziqdan pastda joylashgan bo‘ladi.

Bola qanchalik chala bo‘lsa, kindik halqasi aytib o‘tilgan chiziqdan shuncha pastda joylashgan bo‘ladi

Tug‘ruq vaqtida qo‘llaniladigan barcha oqliklar va asboblari isitilgan bo‘lishi kerak. Chala tug‘ilgan chaqaloqda, tezlik bilan faqat onadan ajratish va oftalmoblenoreyaning profilaktikasi amalga oshiriladi. Qolgan barcha muolajalar isitiladigan stolda bajariladi. Bola 2000 grammdan past tug‘ilgan hollarda antropometrik o‘lchovlarni o‘tkazish keyinga qoldirilishi mumkin.

Chala tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarish qilishda quyidagi shartlarni inobatga olish kerak:

Xonaning harorat rejimining doimiy bo‘lishini ta‘minlash;

Issiq suv bilan uzluksiz ta‘minlanish;

Sanitar-gigiyenik talablarning yuqori saviyada bo‘lishi;

Yaxshi yoritilganlik;

Bolaga kerakli narsalar va asbob-uskunalarning yetarli miqdorda bo‘lishini ta‘minlash.

Chala tug‘ilgan chaqaloqning tana haroratini doimiy saqlab turish uchun rezina isitgich(grelka)lar, isitib qo‘yilgan oqliklar, isituvchi yo‘rgaklash stollari, elektrlashtirilgan grelka-karavotlar va kuvezlardan foydalaniladi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Chala tug'ilgan chaqaloqlarni isitish muolajalari — bola 1500 grammdan past tug'ilgan bo'lsa 5—6 hafta, 1500—2000 gramm tug'ilganda 2—3 haftagacha davom ettiriladi.

Chala tug'ilgan chaqaloqlarda asfiksiya holatining oldini olish maqsadida boshini balandroq qilib yotqizish va ovqatlantirish, cho'miltirishdan oldin va keyin dastlabki 2—3 hafta davomida 10—15 soniyadan kislorod berib turish tavsiya etiladi. Bordiyu asfiksiya boshlanib qolgudek bo'lsa, bolaga namlangan kislorod beriladi, 5 yoki 10% li glyukoza eritmasidan (zaruratga qarab 10% li kalsiy glyukonat eritmasidan qo'shib) venaga yuboriladi. Shifokor nazorati ostida simptomatik davo choralari olib boriladi.

Chala tug'ilgan chaqaloqlarning kindik qoldig'i va yarasini parvarish qilishda juda ham ehtiyot bo'lish lozim. Ularda kindik qoldig'i sog'lom tug'ilgan chaqaloqlarga qaraganda kechroq ya'ni, 2-haftada tushadi. Bola vazni qanchalik past tug'lsa, kindigi shuncha kech tushishi kuzatiladi.

Kindik qoldig'i tushib, yarasi bitib ketgach, chaqaloq albatta cho'miltiriladi. Chala tug'ilgan chaqaloq xuddi normal tug'ilgan bolalar kabi cho'miltiriladi. Vazni 1500 g dan kam bo'lgan bolalarni tug'ilganidan 3 hafta keyin, vazni 1500 g dan ortiq bolalar esa tug'ilganidan 10—15 kun o'tgach cho'miltiriladi. Cho'miltirishda suvning harorati 38—39° C, cho'miltirish muddati 4—5 daqiqa, xona harorati esa 23—24° C bo'lishi kerak.

Chala tug'ilgan chaqaloqlar hayotining birinchi yilida jismoniy rivojlanishining o'ziga xos xususiyati bor. Bunday bolalar vazni bir oyda normal tug'ilgan bolalarnikiga nisbatan juda kam, lekin normal tug'ilgan bolalarga qaraganda keyingi oylarda tez o'sib, vazni ham tez ortadi. Bola qancha kam vazn bilan tug'ilgan bo'lsa, vazni shunchalik tez ortadi.

Chala tug'ilgan bolalarning vazni kuniga 2—3 marta, ba'zida bundan ham ko'p marta tortib turiladi. Ular kamida bir oylik bo'lib, vaznlari 2000 grammga yetgach, sayrga olib chiqiladi. Kuniga 2 marta oz-ozdan sayr qildiriladi.

Chala tug'ilgan bolalarning uylariga javob berilishida quyidagi mezonlar e'tiborga olinishi lozim:

Sog'lomligi;

Vaznining oldingi holatiga qaytganligi;

Tana haroratining birmuncha turg'un saqlanadigan bo'lishi;

Vaznning ortib borishga yo'nalganligi;



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Ehtiyojiga tegishli bo'lgan sutning hech bo'lmaganda yarmini onasining ko'krigidan ema olishi;

Kiritilgan qo'shimcha ovqatlarni o'zlashtira olishi.

Yuqoridagi mezonlar bajarilgan taqdirda ham sog'lom va tug'ilgan vaqtida vazni 2000 g dan 2500 g gacha bo'lgan chaqaloqlar 7 kunlik bo'lganida, tana vazni 1501 g dan 2000 g gacha tug'ilgan chaqaloqlar esa 7—10 kunlik bo'lganlarida chala tug'ilgan bolalarni parvarish qilishga moslashgan ikkinchi bosqich bo'limlariga o'tkaziladi va bunday bolalar uy sharoitida yashash uchun tayyor holatga kelganlaridan keyingina uchastka shifokori va hamshirasi nazorati ostida uylariga javob beriladi.

Uy sharoitida chala tug'ilgan chaqaloq yotgan xonaning temperaturasi 25° bo'lishi lozim. Bolaning boshini balandroq qilib yotqizish kerak, siqib yo'rgaklash yaramaydi. Bolaga issiq yumshoq ich kiyim kiydirib, paxmoq adyolga o'rab qo'yish maqsadga muvofiq, jumladan, qo'llarini ham. Boshiga qalpoqcha kiydirib, yuzi ochiq qoldiriladi. Agar go'dak tez sovib ketsa, uning atrofiga va oyog'iga sochiqqa o'ralgan grelkalarni taxminan 10 sm yiroqroqqa qo'yiladi, bunda suvning temperaturasi 65° bo'lishi kerak. Bola isib ketsa, yuzi qizarib, gavda temperaturasi ko'tarilib, bezovta bo'la boshlaydi. Bunda grelkalar sonini kamaytirish yoki hammasini olib qo'yish, zarur bo'lsa, bir necha minutga 1—2 qavat kiyimini yechish lozim. Agar u sovib ketsa, terisi oqarib, ko'kish tusga kiradi va muzdek bo'ladi, bolaning o'zi esa bo'shashib qoladi. Bunda uni issiq adyolga o'rash yoki issiq vannaga (36—37°) solish, 5—7 minut davomida va yana atrofiga issiq grelkalar qo'yish lozim. Isib yoki sovib ketishning oldini olish uchun grelkadagi suv haroratini termometr bilan tez-tez o'lchab turish kerak.

Chala tug'ilgan chaqaloq faqat ona suti bilan boqilsa, yaxshi o'sadi va rivojlanadi. Ularda emish refleksi, ba'zilarida yutish refleksi ham sust yoki umuman bo'lmaydi, dastlabki kunlari bola zond orqali, kuniga 10-marta, keyinchalik so'rg'ich orqali emiziladi, asta-sekin ko'krakdan emishga o'rgatiladi.

Chala tug'ilgan chaqaloqni ovqatlantirish

Chala tug'ilgan chaqaloqlarni ovqatlantirish juda ham mas'uliyatli vazifa hisoblanadi. Ular chala tug'ilganlik darajasiga, umumiy ahvoriga, so'rish va yutish reflekslarining qanchalik rivojlanganligiga qarab ovqatlantiriladi. Chala tug'ilgan chaqaloqda emish va yutish refleksi yaxshi rivojlangan bo'lib, chalalik darajasi o'ta yuqori bo'lmasa, umumiy ahvoli qoniqarli deb hisoblansa uni onasining ko'kragiga 6—8 soatdan keyin tutish mumkin. Lekin har qanday holatda ham onasi birinchi



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

marta bolani emizayotganida, hamshira ehtiyot uchun birinchi yordam uchun kerakli narsalarni tayyorlab qo'yishi kerak. Chala tug'ilgan chaqaloq ko'krakni emishdan tez charchab qoladi va o'ziga tegishli sutni oxirigacha ema olmaydi. Shuning uchun qolgan sut so'rg'ich yoki qoshiqchada berib to'ydiriladi.

Hayotining birinchi kunlarida chaqaloq bir marta ovqatlanish uchun taxminan 5—10 ml, 2-kuni 10—15 ml, 3-kuni 15—20 ml gacha sut olishi mumkin. Chaqaloqning keyingi kunlarda qancha sut iste'mol qilishi quyidagi formulaga binoan aniqlanadi:

$C = n + \text{bola vaznining har } 100 \text{ grammiga } 10 \text{ ml.}$

Bu yerda n — bolaning hayot kunlarini bildiradi.

Masalan: Vazni 2100 gr bo'lgan 3 kunlik bola bir kecha-kunduzda $(3+10) \times 21 = 273$ ml sut olishi kerak. Agar bola 7 marta ovqatlantirilsa, har safar taxminan 40 ml sut olib turishi kerak bo'ladi.

Bola 10 kunlik bo'lganida «sig'imli» usulga binoan tana vaznining $1/8$ qismi, 10—14 kunlik bo'lganda $1/7$ qismi, 14—21 kunlik bo'lganda $1/6$ va birinchi oyning oxirlariga borib tana vaznining $1/5$ qismi miqdorida sut olib turishi lozim.

O'ta chala tug'ilgan chaqaloqlarga kerakli ovqat miqdori avvaliga haqiqiy vazniga qarab, keyinchalik esa taxminan bo'lishi lozim bo'lgan vazniga qarab hisoblanishi kerak. Taxminan bo'lishi lozim bo'lgan vazn bolaning haqiqiy vazniga 20% qo'shish bilan aniqlanadi.

Masalan, bolaning vazni 2100 gr bo'lsa, bo'lishi kerak bo'lgan vazni $2100+420=2520$ gr. Shartli ravishda 1500 grammgacha tug'ilgan bolaga hayotining birinchi oyida ovqatni haqiqiy vazniga, bir oydan keyin esa taxminiy bo'lishi lozim vazniga qarab, 1500—2000 gramm tug'ilgan bolalar uchun 2 haftaligigacha haqiqiy vazniga, keyin taxminiy bo'lishi lozim vazniga qarab, 2000 grammdan ortiq tug'ilgan bolalar uchun esa tug'ilganidan boshlab taxminiy bo'lishi lozim vazniga qarab hisoblanadi

Chala tug'ilgan chaqaloqlarda fiziologik holatlarning kechish xususiyatlari

Chala tug'ilgan chaqaloqlarda ayrim fiziologik holatlar bola organizmining hali to'la yetilib ulgurmaganligi bois o'ziga xos tarzda o'tadi. Chunonchi, fiziologik sariqlik ularda uzoqroq cho'zilishi, kuchliroq ifodalanishi mumkin, chala tug'ilgan bolalarda vaznning fiziologik vazn kamayishi birmuncha ko'proq bo'ladi va og'irlikning asliga qaytishi odatda sekinroq boradi, buyraklar urat infarkti esa bu chaqaloqlarda kamdan-kam hollarda kuzatiladi va nisbatan tezroq barham topadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Fiziologik holatlardan chaqaloqlar eritemasi, fiziologik mastit, kataral vulvovaginit kabilar bolaning erta tug‘ilib qolganligi sababli kamroq paydo bo‘ladi, meqoniy ham bunday chaqaloqlarda oz miqdorda va unchalik odatiy ko‘rinishga ega bo‘lmaydi.

Chala tug‘ilgan chaqaloqning keyingi rivojlanishi

Chala tug‘ilgan chaqaloqni muntazam kuzatib borish va vaznini tortib ko‘rib tegishli tahlil qilib turish, uni parvarish qilish va boqish ishlaridagi kamchiliklarni erta bilib olishga yordam beradi, hamda turli kasalliklarni boshlanish davridayoq aniqlab olishga imkon yaratadi. Shuning uchun chala tug‘ilgan chaqaloqlar birinchi oyda 5—7 kunda bir marta, ikkinchi oyda va keyingi oylarda oyiga ikki marta tortib, tahlil qilib turiladi.

Chala tug‘ilgan bolalarda tishlar kechroq chiqadi. Ma'lumotlarga qaraganda, tana vazni tug‘ilganda 2000—2500 grammgacha bo‘lgan bolalarda tishlar 7—9 oylikda, tana vazni 1000 dan 1500 grammgacha bo‘lgan bolalarda esa tishlar 10—11 oylikda chiqa boshlaydi.

Chala tug‘ilgan bolalarda psixomotor rivojlanish ham anchagina kech boradi. Sog‘lom tug‘ilgan chaqaloqlarga qaraganda 1500 grammdan past vaznda tug‘ilgan bolaning psixomotor ko‘nikmalari 1—2 yoshligida odatda, 2—3 oyga, tana vazni 1501—2000 grammgacha tug‘ilgan bolalarda esa 1—2 oyga kech paydo bo‘ladi. Tug‘ilganida 2001 grammdan 2500 grammgacha bo‘lgan bolalar bir yoshga to‘lganlarida psixomotor rivojlanish bo‘yicha sog‘lom tug‘ilgan tengqurlari bilan tenglashib oladilar.

Sog‘liqni saqlash vazirligi bergan ma'lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda yiliga tug‘ilgan chaqaloqlarning 5 foizi muddatidan oldin tug‘iladi. Ularning 0,2-0,3 foizini juda kam vaznli chaqaloqlar tashkil qiladi. Bugungi kunda 500 grammdan 1000 grammgacha bo‘lgan zaif chaqaloqlarning yashab qolish ko‘rsatkichi 3 barobar oshgan.

Erkak urug‘idagi nuqsonlar, tuxum hujayraning to‘la rivojlanmaganligi, irsiy omillar, er-xotinning yaqin qarindosh bo‘lishi, platsentaning bachadonga noto‘g‘ri birikib qolishi, homilaning teskari yotishi, ayol nerv va endokrin sistemasining buzilishi ya‘ni, tuxumdonlar, qalqonsimon bez faoliyatining buzilishi, diabet, homiladorlik toksikozlari, abort, kamqonlik, o‘tkir va surunkali yuqumli kasalliklar jumladan, brutsellyoz, toksoplazmoz, gripp, angina, virusli gepatit, shuningdek, ichki jinsiy a‘zolarining turli sabablar bilan yallig‘lanishi, ularda o‘sma paydo bo‘lishi, ayol jinsiy a‘zolarining yetarli rivojlanmaganligi (infantilizm), ona bilan homila qon gruppalari va rezus faktorning nomutanosibliigi kabilar chala tug‘ishga



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

sabab bo‘ladi. Asabiy, ruhiy va jismoniy shikastlanishlar, og‘ir ish sharoiti, oiladagi notinchlik va boshqa noqulay ta’sirotlar vaqtdan avval tug‘ishga olib keladi. Buyrak, jigar, yurak-tomir, nerv kasalliklari bilan og‘rigan ayollarda ham chala tug‘ish kuzatiladi. Bunda ona bilan homila o‘rtasidagi qon aylanishi buziladi, homilaning kislorod bilan ta‘minlanishi yomonlashadi va bu vaqtdan avval tug‘ishga olib keladi. Chala tug‘ish aksariyat juda yosh yoki yoshi 35 dan oshib birinchi marta tug‘ayotgan ayollarda uchraydi. Davo chala tug‘ishga sabab bo‘lgan asosiy kasallikka qarab belgilanadi. Chala tug‘ish ehtimoli bo‘lgan ayol homilador bo‘lgunicha hamda homiladorlik davrida davolanishi lozim. Oldini olish chala tug‘ish sabablarini o‘z vaqtida aniqlash va uni davolash chora-tadbirlaridan iborat.

Homiladorlikning birinchi belgilari paydo bo‘lishi bilan ayollar kerakli maslahatlar olish uchun shifokorga ko‘rinishlari lozim. Homilador ayol to‘g‘ri ovqatlanishi, spirtli ichimliklar iste‘mol qilmasligi, chekmasligi lozim. Homiladorlik toksikozlari paydo bo‘lishi bilan vrachga murojaat etishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pediatriyada hamshiralik ishi Tibbiyot kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma Q.Inomov, M.G‘aniyeva 2007. Bet- 64-70.
2. Neonatologiyada hamshiralik ishi B. T. Xalmatova, O‘.R. Boboyeva, N. R. Satibaldiyeva 2014. Bet- 39-50.
3. Muddatidan oldin tug‘ilgan bola parvarishi - Shifokor maslahati
[https://avitsenna.uz/muddatidan-oldin-tug-ilgan-bola-parvarishi/Chala_tug'ilgan_bola - Vikipediya](https://avitsenna.uz/muddatidan-oldin-tug-ilgan-bola-parvarishi/Chala_tug'ilgan_bola_-_Vikipediya)
https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Chala_tug%CA%BBilgan_bola

